

**QO'RIQLASH FAOLIYATI SOHASIDA SIGNALIZATSİYALAR XAVFSIZLIGINI  
TA'MINLASH, DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH VA USHBU FAOLIYATNI AMALGA  
OSHIRUVCHI SUBYEKTLAR O'RTASIDAGI HAMKORLIK**

**Ibodullayev Bekzod Ozod o'g'li**

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi Universiteti Aniqlash va qo'riqlash  
tizimlaridan foydalanish bo'yicha qo'mondonlik-muhandislik faoliyati 3-bosqich  
kursanti*

Qo'riqlash faoliyati o'z nomidan ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining qo'riqlash faoliyatini qonun normalarida belgilangan tartibda amalga oshiradigan sohalardan biridir. Bunda qo'riqlash faoliyatining turlaridan kelib chiqib, vakolatlari doirasida o'z vazifalarini bajaradilar.

Jumladan, qo'riqlash faoliyatining turlari sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining shartnoma asosida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarning obyektlarini qo'riqlash uchun tuziladigan tarkibiy bo'linmasi tomonidan amalga oshiriladigan qo'riqlash faoliyatining turi – **Idoraviy jihatdan tegishli bo'Imagan qorovullik** deb,

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining o'ta muhim hamda toifalangan obyektlarni, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarning obyektlarini shartnoma asosida qo'riqlash bo'yicha maxsus vazifalarni bajarish uchun tuziladigan, xizmat faoliyati qorovullik xizmatini tashkil etish va o'tash tartibi talablariga muvofiq tashkil etiladigan tarkibiy bo'linmasi tomonidan amalga oshiriladigan qo'riqlash faoliyatining turi esa **Idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash** deb ataladi.

**Qo'riqlash faoliyatining asosiy vazifalari ham qonun normalarida belgilangan bo'lib, ular:**

jismoniy shaxslarning hayotini va sog'lig'ini tajovuzlardan himoya qilish;

jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini hamda obyektlarini tajovuzlardan himoya qilish;

qo'riqlanadigan obyektlar hududida jamoat tartibini saqlash, huquqbazarliklarni profilaktika qilish va ularga chek qo'yish;

yuridik shaxslarning qo'riqlanadigan obyektlarida nazorat-o'tkazish va obyektning chki rejimlarini ta'minlash kabi vazifalardan iboratdir.

Qo'riqlash faoliyati sohasini davlat tomonidan tartibga solish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakolatlaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tomonidan qo'riqlanishi lozim bo'lgan obyektlar ro'yxatini tasdiqlaydi;

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tomonidan qo‘riqlash xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha shartnomalarning namunaviy shaklini tasdiqlaydi;

O‘zbekiston Respublikasining o‘ta muhim va toifalangan obyektlarida qo‘riqlash-texnik xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha ishlarni bajarish uchun ruxsatnomalar beradi;

qo‘riqlash faoliyati sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.<sup>1</sup>

**Qo‘riqlash faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlar:**

davlat organlarining qo‘riqlash bo‘linmalari;

idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash bo‘linmalari;

idoraviy qorovullik bo‘linmalaridan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘riqlash faoliyatini chet davlatlarning jismoniy shaxslari va tashkilotlari, shu jumladan xususiy tashkilotlari tomonidan amalga oshirishga yo‘l qo‘yilmaydi, bundan O‘zbekiston Respublikasi hududiga qisqa muddatli tashrif bilan kelgan oliy darajali mehmonlar xavfsizligini ta‘minlash hollari mustasnodir.

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida Milliy gvardiya qo‘riqlash xizmati Milliy gvardiya Qo‘riqlash bosh boshqarmasiga aylantirildi.

Yurtboshimiz “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo‘riqlash bosh boshqarmasining faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorni imzoladi. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining Milliy gvardiya qo‘riqlash xizmatini Milliy gvardiya Qo‘riqlash bosh boshqarmasi etib qayta tashkil etish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berildi. Quyidagilar Qo‘riqlash bosh boshqarmasining asosiy vazifalari etib belgilandi:

shartnoma asosida davlat obektlari, o‘ta muhim, toifalangan va boshqa obektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini, shuningdek, xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlarning diplomatik, konsullik va boshqa vakolatxonalarini qo‘riqlash;

qo‘riqlanayotgan obektlarda ichki, ruxsat berish rejimlarini hamda jamoat tartibini ta‘minlash, huquqbazarliklarning oldini olish va bartaraf etish;

qo‘riqlash vositalari va tizimlarini qo‘llash sohasida yagona texnik siyosatni va ulardan foydalanish ustidan samarali nazoratni ta‘minlash, shuningdek, qo‘riqlash faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng miqyosda joriy etish;

shartnoma asosida texnik qo‘riqlash vositalarini o‘rnatish (sozlash), ularga texnik xizmat ko‘rsatish va ekspluatatsiya qilish;

davlat tashkilotlari, shuningdek, ustav fondida (kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslarga tegishli qo‘riqlash bo‘linmalarida inspektorlik nazorat tekshiruvlarini o‘tkazish (huquq-tartibot organlari va harbiylashtirilgan tuzilmalardan tashqari), obektlarda ichki, ruxsat berish rejimlariga rioya etilishiga doir tadbirlarni nazorat qilish va muvofiqlashtirish;

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni <https://lex.uz/uz/docs/-6066682> Toshkent sh., 2022-yil 15-iyun, O‘RQ-778-son

ommaviy tadbirlarda jamoat xavfsizligini ta'minlashda ishtirok etish, aholi gavjum joylarda jamoat tartibini saqlashda huquq-tartibot organlariga ko'maklashish.

Belgilanishicha, Qo'riqlash bosh boshqarmasi mustaqil tarkibiy bo'linma hisoblanadi hamda o'z vakolatlari doirasida davlat obektlari, o'ta muhim, toifalangan va boshqa obektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini qo'riqlash bo'yicha vazifalar va funksiyalarni ko'rsatilayotgan qo'riqlash xizmatlari uchun tushadigan mablag'lar hisobiga, o'zini o'zi mablag' bilan ta'minlash, xarajatlarni qoplash va mustaqil xo'jalik yuritish tamoyili asosida amalga oshiradi.

Shu bilan birga, qo'riqlash faoliyatiga zamonaviy qo'riqlash texnologiyalarini keng joriy etish orqali qo'riqlash xizmatining qamrovini yanada kengaytirish, xodimlarning kasbiy mahorati, bilim va ko'nikmalarini oshirish, shuningdek, sohada boshqaruva faoliyati samaradorligini ta'minlash bilan bog'liq tizimli muammolar saqlanib qolmoqda.

Ammo zamonaviy texnika-texnologiyalarning rivojlanishi va aholining, xalqning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatining oshganligi va o'z xavfsizligi nuqtai nazardan bugungi kunda qo'riqlash faoliyatiga juda ko'p ariza va murojaatlar kelib tushmoqda. Bunda jinoyatchilik va huquqbazarliklarni oldini olish va boshqa vazifalarni amalga oshirishda sohaviy xizmatlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilganligi fikrimizning yaqqol isbotidir.

Qo'riqlash xizmatining asosiy vazifasi shartnama asosida davlat ob'ektlarini, o'ta muhim, toifalangan va boshqa ob'ektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulklarini qo'riqlashni ta'minlash hisoblanadi. Shuningdek, yuridik yoki jismoniy shaxs bilan belgilangan namunada shartnama imzolanadi, taraflarning huquq-majburiyatları tushuntiriladi.

Qo'riqlash xizmati uchun narx Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar uchun Moliya vazirligi bilan kelishib, boshqa tashkilotlar uchun Milliy gvardiya qo'mondoni tomonidan mustaqil belgilanadi. Qo'riqlash xizmatining majburiyatları va huquqlari, naryadlarning faoliyatini tashkil etish, xodimlarning javobgarligi belgilab berilgan. Xususan, Qo'riqlash xizmati xodimi davlat organi vakili hisoblanadi va davlat himoyasi ostida bo'ladi. Qo'riqlash xizmati xodimi xizmat vazifasini bajarishda faqat bevosita yoki to'g'ridan-to'g'ri boshlig'iga (komandiriga) va mas'ul navbatchiga bo'ysunadi.

Hududda amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan qo'riqlanayotgan obyekt ma'muriyatiga, mansabdor shaxsiga, shartnama shartlariga muvofiq obyektni muhandislik va texnik mustahkamligini ta'minlash, signalizatsiya tizimlari va videokuzatuv bilan jihozlash bo'yicha taqdimnoma kiritishda; sodir etilayotgan jinoyatlarni to'xtatish, shuningdek, ularni sodir etgan shaxslarni ta'qib etish va ushslash, bir vaqtning o'zida bir necha obyektda "tashvish" signalizatsiyasi ishlab ketgan hollarda Qo'riqlash bosh boshqarmasi ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya patrul guruhlarini chaqirish orqali hamkorlikni tashkil etadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.O'zbekiston Respublikasining "Qo'riqlash faoliyati to'g'risida"gi qonuni <https://lex.uz/uz/docs/-6066682> Toshkent sh., 2022-yil 15-iyun, O'RQ-778-son;
- 2.O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo'riqlash bosh boshqarmasining faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida PQ-4997 son 2021-yil, 20-fevral;
- 3.Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida;
- 4.lex.uz
- 5.yuridik.xizmat.uz